

ANTROPONIMLARDA ABTRONIMLARNING IFODALANISHI

Xoldorov Yusufbek

TerDU lingvistika (o‘zbek tili)

yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va jahon antroponimlarida abtronimlarning ifoda etilishi, abtronim hamda inabtronimlarning mohiyati haqida qisqacha fikr yuritiladi. O‘zbek hamda jahon lingvomadaniyatidan bir qancha abtronimik antroponimlar misol sifatida keltirilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, antroponim, abtronim, inabtronim, “himoya nomlari” .

ABSTRACT

In this article, some abtronyms and inabtronyms in Uzbek and world anthroponyms are expressed, their some functions are briefly discussed. A number of abtronymic anthroponyms from Uzbek and the world linguistic culture are given as examples and analyzed.

Key words: Linguistic culture, anthroponym, abtronym, inabtronym, “protective names”.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli sohalarda olib borilayotgan keng islohotlar qatorida davlat tili nufuzini oshirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Joylarda o‘zbek tilining maqomini ko‘tarish maqsadida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqdaki, ular xalqimizga, xususan, yosh avlodga ona tilimizning naqadar boyligi va imkoniyatdorligini ko‘rsatishdir. Umuman olganda, davlatimiz tomonidan til targ‘ibotiga qaratilgan e‘tibor tahsinga loyiq. Ammo buning o‘zi yetarli

emas. Chunki ona tiliga hurmat oiladagi muhit va ota-onaning o‘z tiliga bo‘lgan munosabatidan boshlanadi. Farzand ona tilidagi har bir so‘zning mohiyatini oilasida ota-onasi, aka-opalari nutqidan o‘zlashtiradi. Shuning uchun oiladagilarning tilga oid bilimlari tilni bola ongiga tatbiq qilishda muhimdir. Bir qarashda oddiy tuyulgan farzandga nom qo‘yish ham tilni to‘g‘ri tushunish bilan baholanadi. Ota-onaning eng birinchi vazifasi farzandga qo‘yiladigan ismning qanday ma‘no-mazmun kasb etishini anglash, uni nomlashda qanday jihatlarga e‘tibor berishdir. Xususan, hozirgi o‘zbek oilalarida qo‘yilayotgan ismlar nechog‘lik ona tilimiz qonuniyatlariga xos, ularning ma‘nolari qanday? Ayrim ismlar aslida qanday imlo xususiyatlariga ega-yu, amalda qanday qo‘llanilmoqda? Shunga o‘xshash savollarga ota-ona javob bera olishi lozim. Darhaqiqat, o‘zbek tili antroponimlari mavzusiga doir qator ishlar qilingan, ammo buning bilan o‘zbek ismlari to‘laligicha qamrab olingan deyish mushkul. Bu sohada filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatovning xizmatlari katta. Professorning “O‘zbek ismlari lug‘ati”¹ da 14600 ta ismning ma‘nosi hamda imlosini izohlagan. Bugungi kunda farzandga ism qo‘yish vaqtida ko‘pchilik ota-onalar “zamonaviy”, “chiroyli” ism qo‘yishga harakat qiladi. Bu esa o‘zbek mentaliteti va madaniyatiga xos milliy ismlar unutilib borishiga olib kelmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ishlatilmay qolgan “Bolta”, “Tesda”, “Temirboy”, “Bekkamto‘sh”, “Ko‘paysin” kabi ismlarni tasodifiy, ma‘nosiz ismlar degan qarashlar paydo bo‘lib ulgurgan. Bu esa o‘zbek tilidagi ismlarini qayta o‘rganib, tahrir qilishni talab qiladi. Kishi ism-shariflarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy o‘rganuvchi soha antroponimiya bo‘lib, unda kishi nomlarining ma‘nosi va imlosi o‘rganiladi. Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra: “Har qanday madaniyatda shaxsning nomi ijtimoiy-madaniy belgi sifatida xizmat qiladi. Uzoq tarixga ega bo‘lgan nomlar tizimida xalqning milliylik izlari bor. Antroponimlar nafaqat lingvistik, balki tarixiy-madaniy ma‘lumotlarning ham saqlanishini ta‘minlashi bilan aniq milliy-madaniy ahamiyatga ega. Antroponimiya xalqning madaniyatini aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda jahon tilshunosligida antropologik lug‘at va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni

¹ Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 174-bet.

o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda”². Shuning uchun kishi ismlari ijtimoiy-madaniy vosita bo‘lib, u shaxsning madaniyatini bilish uchun ham ishlatiladi. Shaxsning nomi orqali uning millatini, o‘ziga xos belgisini, ijtimoiy ahvolini, shuningdek, tarixini kuzatish mumkin. Antroponimlar tilshunoslik, madaniy va tarixiy ma’lumotlarning saqlanishini kafolatlagani uchun ham milliy, ham madaniy ahamiyatga ega. Antroponimiyada abtronim termini mavjud bo‘lib u “o‘z egalariga mos keladigan ismlar, masalan kasb-koriga, hayotiy faoliyati hamda kelajagiga mushtarak ismlar” ma’nosini bildiradi. Masalan, Russel Brain (ing.miya) – nevrolog, Margaret Court (ing.tennis maydoni) – avstraliyalik tennischi, Michael Ball (ing.koptok) – ingliz futbolchisi). Shuningdek inabtronimlar tushuncha ham mavjud bo‘lib, “o‘z egalariga mos kelmaydigan ismlar” degan ma’noni anglatadi. Masalan, Rob Banks (ing.bank o‘marish) – Britaniya politsiya ofitseri, Frank Beard (ing.soqol) – “ZZ Top” amerika musiqa guruhining yagona soqolsiz ijrochisi³.

O‘zbek lingvomadaniyatida ham abtronimlarni uchratishimiz mumkin, ammo Yevropadan farqli ravishda bolaga ism qo‘yish ortidan uning yashab ketishi, kasalliklarga bardoshli bo‘lishi, o‘zidan keyin o‘g‘il farzand tug‘ilishi va boshqa xususiyatlar hisobga olingan. “Uzoq o‘tmishda odamlar tug‘ilgan bolaning turmay o‘laverishini uning injiq, ojiz va irodasizligidan deb bilishgan. Ular bola mahkam, chidamli, irodali bo‘lsa unga yovuz kuchlar zarar yetkaza olmaydi, bola har qanday kasallikka bardoshli bo‘lib o‘sadi, deb hisoblashgan. Shu sababli ular bolaga mustahkamlik bag‘ishlaydigan qattiq jismlardagi mahkamlik xususiyatlarini o‘tkazishga harakat qilishgan. Buni bolaga beriladigan ism orqali amalga oshirish mumkin deb o‘ylashgan. Bunday fikr bir tarafdin so‘zning sehr kuchiga ishonish, ikkinchi tomondan esa animizm bilan bog‘liq qarashlar asosida vujudga kelgan. Mustahkam jismlar nomidan yasalgan ismlar etnografik adabiyotlarda “himoya qiluvchi ismlar”, “himoya nomlari” deb yuritiladigan ismlar sirasiga kiradi va bu turdagi ismlar dunyo xalqlari onomastik sathida uchraydi.” - deydi Ernst Begmatov

² Z.Daniyarova, Sh.Abdinazimov. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 2020. Volume 7. Issue 3. Pages 4364-4369

³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Anthroponymy>

o‘zining “Ismlarning sirli olami” asarida⁴.

Bu turdagi ismlar o‘zbek xalqi antroponimik sathida talaygina, masalan, “tosh” leksemasi bilan bog‘liq ismlar mavjudki, bunday asosdagi nomlar bolaning muddatidan oldin tug‘ilmasligi, sog‘lom bo‘lishi, uzoq umr ko‘rishini niyat qilish maqsadida qo‘yiladi. Masalan: Mahkamtosh (shevada Bekkamtosh varianti ham mavjud), Tursuntosh, Bibitosh, Bo‘ritosh, Anortosh, Toshoy, Toshxol, Toshbu, Toshtemir, Toshboy, Toshmurod, Toshqul, Toshbadal kabi ismlar shular jumlasidandir. Shunday maqsad bilan bog‘liq, mustahkamlikni o‘zida mujassam qilgan “temir” hamda “po‘lat” semalari asosida qo‘yilgan nomlar ham o‘zbek tilida mavjud. Bunday ismlar, asosan, o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi. Toshtemir, Bektemir, Temir, Temirxo‘ja, Mirtemir, Shotemir yoki Shopo‘lat, Po‘lat, Norpo‘lat, Cho‘tpo‘lat, Sherpo‘lat va shu kabi boshqa ismlar fikrimizga misoldir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir ism o‘zbek milliy madaniyatining o‘ziga xos bir ifodasi. Har qandaay ism qo‘yilishida o‘ziga xos jarayon, ma’lum qarash yotadi. Hech bir ism “tasodifiy” qo‘yilmaydi. Ismlarning “eskicha” , “xunugi” bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘zbek ismlarini tadqiq qilishda antroponimlarni muayyan turlari hamda ularning ma’nolarini to‘la izohlagan holda lug‘at yaratish, o‘zbek milliy mentalitetiga xos ismlarni ommalashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 174-bet.
2. Z.Daniyarova, Sh.Abdinazimov. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 2020. Volume 7. Issue 3. Pages 4364-4369
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Anthroponymy>

⁴ Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 174 bet.